

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIYTA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI**



«TASDIQLAYMAN»

Guliston davlat universiteti

rektori

M.T. Xodjiyev

30 avgust 2023\_yil

No 121-20214

**TABIIY GEOGRAFIYANI O‘QITISH METODIKASI  
FANINING O‘QUV DASTURI**

<b>Bilim sohasi:</b>	100000-Ta’lim
<b>Ta’lim sohasi:</b>	110000-Ta’lim
<b>Ta’lim yo‘nalishi:</b>	60110500–Boshlang‘ich ta’lim



Fanmodul kodi TGO'MM1604	O'quv yili 2023-2024	Semestr 6	ECTS - Kreditlar 4	
Fanmodul turi Majburiy	Ta'lim tili O'zbek/rus		Haftadagi dars soatlari 3	
Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)		Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
Tabiiy geografiyani o'qitish metodikasi	60		60	120

### I. Fanning mazmuni:

**Fanni o'qitishdan maqsad** – talabalarning geografiya o'qitish metodikasi o'quv fanlarining mazmuni, o'qitish shakllari, metodlari, vositalari va ulardan foydalanish yullari bilan tanishtirish, bo'lg'usi geografiya o'qituvchilarining ilmiy-metodik tayyorgarligini tarkib toptirish va rivojlantirish, zamonaviy ta'lim vositalarini qo'llash uchun zarur bo'lgan metodik bilim, ko'nikmalarni shakllantirish yo'llariga oid bilimlar berish.

**Fanning vazifasi** – talabalarga geografiya o'qitish metodlari, ularning usullari, o'qitish vositalari foydalangan holda dars, darsdan tashqari ishlar, o'quv sayohati va sinf dan tashqari mashg'ulotlarning ishlanmalarini loyihalash, o'quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etish va boshqarishning o'ziga xos xususiyatlarini ajrata olish, o'quvchilarning bilimlarini nazorat qilish va baholashning samarali yo'llarini qo'llash yo'llarini ilmiy bilimlar berish, ko'nikma va malakalarini hosil qilishdan iborat.

### **II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)**

#### **II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:**

#### **1-mavzu. Kirish. Tabiiy fanlar va geografiya o'qitish metodikasining obyekti va predmeti, maqsadi va vazifalari**

Tabiiy fanlar va geografiya o'qitish metodikasi fanining obyekti va predmeti. Fanning maqsadi va vazifalari. O'quv fanining boshqa fanlar bilan bog'liqligi.

Tabiiy Geografiya o'qitish metodikasi pedagogika fanlar tizimiga kiradi. Bu fan maktablarda tabiiy va iqtisodiy geografiya asoslarini o'qitish jarayonini o'rganadi. U umumiy dilaktika bilan bog'langan. Didaktika – ta'limning mazmunini, o'quv jarayonini va tarbiyaning asosiy qonuniyatlarini o'rganadigan nazariy fandır. Ammo u alohida fanlarni o'qitish bilan shug'ullanmaydi. Alohida fanlarning o'qitish metodikasi bilan maxsus pedagogika fanlari shug'ullanadi.

#### **2-mavzu. Tabiiy fanlar va geografiya ta'limi metodikasining shakllanish va rivojlanish tarixi.**

Avval aytganimizdek geografiya ta'limi metodikasi pedagogika fanlari tizimiga kiradi. Pedagogika fani geografiya kabi eng qadimgi fanlar qatoriga kiradi. Geografiya ta'limining rivojlanishini qisqa qilib quyidagi bosqichlarga bo'lishimiz mumkin:

Antik davr; buyuk geografik kashfiyotlar davri, o'rta asrlar, ilmiy tadqiqotlar davri. O'zbekistonda XIX-XX asrlardagi geografiya ta'limining rivojlanishi 1880 yillarda rus-tuzem maktablari ochila boshladi, 1890 yili o'zbek tilida A. Geykinning "Er xususida ilmdan olingan so'zlar" nomli darsligi nashr etildi. Haftasiga geografiyadan dars



soatlarining hajmi 4 soat bo'lgan;

### **3-mavzu. Xorijda tabiiy fanlar va geografiya ta'limi**

Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda tabiiy fanlar va geografiya ta'limi. Tabiiy fanlar va geografiyani o'qitishda uzoq va yaqin xorij mamlakatlari tajribasi (Rossiya, Germaniya, AQSH, Buyuk Britaniya (Kembridj) maktablari, Koreya Respublikasi, Singapur, Qozog'iston misolida). Xalqaro baholash tadqiqotlari (PISA, TIMSS, STEM)da tabiiy fanlar va geografiya ta'limining ahamiyati.

### **4-mavzu: Geografiya ta'limini uyushtirishning shakllari. Tabiiy fanlar va geografiya ta'limida o'quv ekskursiyalari**

Dars. O'quvchilarning mustaqil ishlari. Maslahatlar uyushtirish. Fakultativ mashg'ulotlar, ekskursiyalar. Uyga vazifaning ta'limda tutgan o'rni va roli. Tabiiy fanlar va geografiya ta'limida dars. Atrofimizdagi olam, tabiatshunoslik va geografiya darslarining ta'limda tutgan o'rni. Darsga qo'yiladigan talablar. Darsning turlari. Aralash dars. Yangi bilimlarni o'zlashtirish darsi. Ko'nikma va malakalarni hosil qilish darsi. Mustahkamlash darsi. Takrorlash darsi.

Tabiiy fanlar va geografiya ta'limida ekskursiyalarning o'rni va roli. Tabiatshunoslik va geografiyaga oid bilim va tushunchalarni shakllantirishda ekskursiyaning ahamiyati. Ekskursiya o'tkazishga tayyorgarlik bosqichlari. O'quv va o'lkashunoslik ekskursiyalari. Tabiiy geografik ekskursiyalar. Iqtisodiy geografik ekskursiyalar.

### **5-mavzu: O'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini tekshirish va baholash**

O'quvchilar bilimni baholashning zarurligi. Baholashga qo'yiladigan talablar. Baholash turlari. Formativ va summativ baholash. Baholash borasida xalqaro tajribalar.

### **6-mavzu: Tabiiy fanlar va geografiya ta'limida tarbiya turlari**

Ta'lim va tarbiyaning uyg'unligi. Tabiiy fanlar va geografiya ta'limida tarbiya turlari: ilmiy dunyoqarash, ekologik, estetik, ahloq-odob, vatanparvarlik, mehnat, iqtisodiy tarbiya va boshqalar.

### **7-mavzu: Tabiiy fanlar va geografiya ta'limida xarita va globuslardan foydalanish. Tabiiy fanlar va geografiya ta'limida foydalaniladigan o'quv-ko'rgazmali vositalar tasnifi.**

Xarita bilan ishlash. Tabiiy fanlar va geografiya ta'limida qo'llaniladigan xaritalarga tavsif. Xaritalarni tushunish, bilish, o'qish va solishtirish. Tabiiy va iqtisodiy xaritalarni o'qish. Globus bilan ishlash metodlari. Globusning o'ziga xos xususiyatlari. Globusda koordinatalarni, masofalarni o'lchash. Kuzatish va tajriba usullari.

Tabiiy fanlar va geografiya ta'limida rasmlardan foydalanish. Diagramma va grafiklar bilan ishlash. Ularning turlari. Jadvallar bilan ishlash. Modellar bilan ishlash. Tog' jinslari namunalari va gerbariylar bilan ishlash. Statistika materiallari bilan ishlash. Ko'rgazmali vositalarga qo'yiladigan talablar.

### **8-mavzu: Geografik maydoncha va uni jihozlash. Zamonaviy geografiya xonasi**

Geografik maydonchaning o'quv jarayonidagi hamda tabiiy fanlar va geografiya



ta'limidagi ahamiyati. Geografik maydonchani tuzilishi. Geografik maydoncha: astronomik, meteorologik, gidrologik, geomorfologik kuzatish olib boriladigan joy.

Geografiya xonasining o'quv jarayonidagi o'rni va ta'lim samaradorligini oshirishdagi ahamiyati. Geografiya xonasi jihozlash. Zamonaviy geografiya xonasini jihozlashga qo'yilgan talablar va bu boradagi manfaatdor tashkilotlarning tavsiyalari.

**9-mavzu: Tabiiy fanlar va geografiya ta'limida amaliy topshiriqlarni tuzish hamda ulardan foydalanish usullari**

Tabiiy fanlar va geografiyani o'qitishda mashq va masalalarning ahamiyati. Ularga qo'yiladigan ilmiy va metodik talablar. Geografiya fanidan mashq va masalar tuzish tajribasi. O'quvchilar bilimni sinash, ularni xalqaro baholash tadqiqotlariga tayyorlashda amaliy topshiriqlar (geografik mashq va masalalar, amaliy topshiriqlar)dan foylanishning roli. Amaliy topshiriqlarning geografiyadan fan bellashuvlarini tashkil etishdagi ahamiyati.

**10-mavzu: Tabiiy fanlar va geografiyani o'qitish jarayoniga innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash**

Ta'limning keys-stadi texnologiyasiga kirish: keyslarni ishlab chiqish qoidasi. Geografiyani o'qitishning ilg'or pedagogik uslublari. Muammoli o'qitish. Tabiiy fanlar va geografiyani o'qitish jarayoniga innovatsion pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish.

**Fan mavzulari va ularga ajratilgan soatlar taqsimoti:**

T/r	Ma'ruza mavzulari	Dars soatlari hajmi
6-semestr.		
1	Kirish. Tabiiy fanlar va geografiya o'qitish metodikasining obyekti va predmeti, maqsadi va vazifalari	2
2	Tabiiy fanlar va geografiya ta'limi metodikasining shakllanish va rivojlanish tarixi	2
3	Xorijda tabiiy fanlar va geografiya ta'limi	2
4	Geografiya ta'limini uyushtirishning shakllari	2
5	O'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini tekshirish va baholash	2
1-Oraliq nazorat		
6	Tabiiy fanlar va geografiya ta'limida tarbiya turlari	2
7	Tabiiy fanlar va geografiya ta'limida xarita va globuslardan foydalanish	2
8	Geografik maydoncha va uni jihozlash	2
9	Tabiiy fanlar va geografiya ta'limida amaliy topshiriqlarni tuzish hamda ulardan foydalanish usullari	2
10	Tabiiy fanlar va geografiyani o'qitish jarayoniga innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash	2



2-Oraliq nazorat	
Yakuniy nazorat (yozma)	
Jami	20

### III. Amaliy mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlari		Soat hajmi
6-semestr		
1.	Tabiiy fanlar va geografiya o'qitish metodikasi fanining vazifalari	2
2.	Mustaqillikgacha bo'lgan davrda tabiiy fanlar va geografiya ta'limi	2
3.	Mustaqillik yillarida tabiiy fanlar va geografiya ta'limi	2
4.	Xorijda tabiiy fanlar (Science) va geografiya ta'limi	2
5.	Tabiiy fanlar va geografiya darslarida ma'naviy, ekologik, iqtisodiy tarbiyani shakllantirish yo'llari va usullari	2
6.	Tabiiy va iqtisodiy geografik tushunchalarni shakllantirishning yo'llari (turli geografik tushunchalar misolida)	2
7.	Globus va xaritalar asosida amaliy topshiriqlar bajarish. Ularni tasniflash	2
8.	Geografiya ta'limi metodlari, mashg'ulot mazmuniga ko'ra o'qitish metodlarini tanlashni o'rganish. Hidrosfera va uning tuzilishi.	2
9.	Muammoli ta'lim metodi bilan amaliy tanishish. Litosfera va uning tuzilishi.	2
10.	Geografiya ta'limini tashkil etish shakllari. Biosfera va uning tarkibiy tuzilishi.	2
11.	Geografiya darslarini rejalashtirish. Zamonaviy ekologik muommolar	4
12.	O'quvchilar bilim ko'nikmalarini nazorat qilish va baholash usullari. Kun va tun. Yil fasllari	4
13.	Geografik o'yin o'tkazish metodikasi bilan tanishish. Geografik rasmlar bilan ishlash.	4
14.	Uch darajali testlar tuzish hamda ulardan tabiiy fanlar va geografiya ta'limida foydalanish. Metodlarni tasniflash usullari. Interfaol dars metodlari	4
15	Ekskursiya va uni tashkil etish tartibi.	4
Jami :		40

Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha kafedra professor-o'qituvchilari tomonidan ko'rsatma va tavsiyalar ishlab chiqiladi. Mavzu mashg'ulotlarida olgan bilim va ko'nikmalarni mustahkamlaydilar hamda yanada boyitadilar. Bunga jamoa bo'lib mashq qilish va mustaqil ishlash yo'li bilan erishiladi.

Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir professor-o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi zarur. Mashg'ulotlar faol va interaktiv usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

#### Ta'lim texnologiyalari va metodlari:

- ma'ruzalar;



- interfaol keys-stadilar;
- seminarlar (mantiqiy fiklash, tezkor savol-javoblar);
- guruhlarda ishlash;
- taqdimotlarni qilish;
- individual loyihalar;
- jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.

#### **IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar:**

Mustaqil ish mavzulari		Soat
6-semestr		
1	1. Tabiiy fanlar va geografiya o'qitish metodikasining shakllanish tarixi;	6
2	Tabiiy fanlar va geografiya o'qitish metodikasining fanlar tizimida tutgan o'rni va boshqa fanlar bilan aloqasi;	6
3	Turkiston jadidchiligi davrida geografiya fani va ta'limi;	6
4	Germaniya va Kembrij maktablarida tabiiy fanlar va geografiyani o'qitishning holati, yutuqlari va muammolari;	6
5	Koreya Respublikasi va Singapurda tabiiy fanlar va geografiya ta'limi;	6
6	Rossiya Federatsiyasida tabiiy fanlar va geografiya ta'limining holati hamda bu borada xalqaro baholashlarda erishilayotgan natijalar;	6
7	Geografiya darslarida mediaresurslardan foydalanish orqali o'quvchilarning bilim samaradorligini oshirish;	6
8	Tabiiy fanlar va geografiya darslarida amaliy mashg'ulotlardan foydalanish metodikasi;	6
9	Tabiiy fanlar va geografiya darslarida iqtidorli hamda o'zlashtirishi past o'quvchilar bilan ishlash usullari.	6
10	O'quv ekskursiyalari orqali maktab o'quvchilarining amaliy kompetensiyalarini rivojlantirish yo'llari;	6
Jami:		60

#### **V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetentsiyalar):**

Geografiya va ijtisodiy bilim asoslarini o'qitish metodikasi fani va uning barcha bo'limlari, fanning mazmuni, mohiyati, maqsadiva vazifalari, geografiyani o'qitishda foydalaniladigan metod va usullar hamda pedagogik texnologiyalarni uyg'unlashtirish yo'llari, ularning o'ziga xos xususiyatlari, o'quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etish va boshqarish yo'llari, ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarning mustaqil o'quv-bilish faoliyatining tutgan o'rni va ahamiyati, o'quvchilarning mustaqil bilim olish faoliyatini tashkil etishva boshqarish yo'llari haqida *tasavvurga ega bo'lishi; (bilim)*

#### **VI. TALABANING KREDITLARNI TO'PLASH TARTIBI**

Talabala joriy, oraliq nazorat uchun berilgan vazifa va topshiriqlarni o'z vaqtida



bajarishi, Yakuniy nazoratni muvafaqiyatli topshirishi lozim. To'plangan reyting ballari asosida talabani bahosi aniqlanadi.

### **Tabiiy geografiyani o'qitish metodikasi fanidan baholash mezonlari**

**Izoh:** talaba bitta fandan oraliq baholashning 60 ballning kamida  $60\%(60 \text{ ball} * 60\% / 100\% = 36 \text{ ball})$ ni to'play olmasa yakuniy baholash uchun nazoratga kiritilmaydi. Agar yakuniy baholashdagi jami 40 ballning kamida  $60\%(40 \text{ ball} * 60\% / 100\% = 24 \text{ ball})$ ni to'play olmasa ushbu fandan qoniqarsiz topshirgan hisoblanadi

**Baholash tartibi va mezonlari**(har bir oraliq, joriy, mustaqil ish va yakuniy nazorat uchun):

**1.Oraliq nazoratlar** yozma test va yozma ish tarzida o'tkazilib, undan 25 ta test va 2ta savolga yozma javob berishi so'raladi. Har bir test savol 0.2 ballgacha, yozma ish 2.5 ballgacha baholanadi.(jami 10 ball)

**2.TMI:** Har bir mustaqil ishmavzusini referat yoki taqdimot qilib kelish va uni so'zlab berish orqali himoya qilishi (**5 balldan jami 20 ball**):

- ❖ Topshiriq to'liq bajarilgan, topshiriq buyicha asosli xulosa chiqarilgan bo'lsa – **5 ball**
- ❖ Topshiriq mohiyati ochilgan, natijalar tug'ri, xulosasi bor – **4 ball**
- ❖ Topshiriq mohiyati yoritilgan, natijalar asoslanmagan, juz'iy kamchiligi bo'lsa – **3 ball** beriladi.

**3.Joriy nazorat:** Amaliyot darsi bo'yicha berilgan topshiriqlarini bajarilishi hajmi va sifatiga qarab 1- 2 ballgacha beriladi (**jami 30 ball**):

- ❖ Topshiriq to'liq bajarilgan, berilgan topshiriq bo'yicha asosli xulosa chiqarilgan bo'lsa – **2 ball**
- ❖ Topshiriq mohiyati ochilgan, natijalar to'g'ri, xulosasi bor – **1- 1.5 ball**
- ❖ Topshiriq mohiyati yoritilgan, natijalar to'liq asoslanmagan, ayrim juz'iy kamchiligi bo'lsa – **0.5-1 ball** beriladi.

**4.Yakuniy nazoratda** talaba yozma yoki test savolga javob berishi lozim. Har bir savolga test bo'lsa **40 ta test savol x1 balldan=40 ball** yoki yozma **4 ta savol x10balldan=40 ball**.

**Eslatma:** Talabani umumiy bali hisoblanganda yaxlitlab olinadi.

Baho	Baholash mezonlari	To'plangan ball
A'lo	Yetarli nazariy bilimga ega. Topshiriqlarni mustaqil yechgan. Berilgan savollarga to'liq javob beradi. Masalani mohiyatiga to'liq tushunadi. Auditoriyada faol. O'quv tartib intizomiga to'liq rioya qiladi. Topshiriqlarni namunali rasmiylashtirgan.	90-100
Yaxshi	Yetarli nazariy bilimga ega. Topshiriqlarni yechgan. Berilgan savollarga etarli javob beradi. Masalani mohiyatini tushunadi. O'quv tartib intizomiga to'liq rioya qiladi.	70-89
Qoniqarli	Topshiriqlarni yechishga harakat qiladi. Berilgan savollarga javob berishga harakat qiladi. Masalani mohiyatini chala tushungan. O'quv tartib intizomiga rioya qiladi.	60-69
Qoniqarsiz	Talaba amaliy mashg'ulot darsi mavzusiga nazariy tayyorlanib kelmasa, mavzu bo'yicha masala, misol va savollariga javob bera olmasa, darsga sust qatnashsa bilim darajasi qoniqarsiz baholanadi	0-59

### **VII. Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va axborot manbalari**



№	Asosiy adabiyotlar:
1	VAXOBOV H, MIRZAMAHMUDOV O.T, Geografiya o'qitish metodikasi.Uslubiy qo'llanma. Namangan: Universitet-2016
2	Saydamatov F. Geografiya o'qitish metodikasi. Ma'ruzalar matni. T.Nizomiy nomidagi TDPU, 2001 y
№	Qo'shimcha adabiyotlar:
1	H.M.Karakuлов -Учебно-методический комплекс по предмету.«Методика преподавания географии и основы экономических знаний». ТАШКЕНТ – 2021 .
2	O'zbekiston respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. 2017 yil, 6-son, 70-modda.
3	Sh.Mirziyoyev -Qonun ustivorligi va inson manfaatlarini ta'minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. T.:O'zbekiston. 2017.
4	Abdieva Z.A. Geografiya fanida noan'anaviy dars usullaridan foydalanish. Navoiy., 2003.
5	Tolipov O'., Usmanboeva M. Pedagogik texnologiyalarning tanqidiy asoslari. T. "Fan" nashriyoti. 2006 y.
6	D.Tojiboeva. Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi. T. "Fan va texnologiya". 2009 y.
Elektron ta'lim resurslari	
1. <a href="http://www.tdpu.uz">www.tdpu.uz</a> 2. <a href="http://www.pedagog.uz">www.pedagog.uz</a> 3. <a href="http://www.ziynet.uz">www.ziynet.uz</a> 4. <a href="http://tdpu.-INTRANET">http://tdpu.-INTRANET</a>	

**O'quv dasturi Guliston davlat universiteti tomonidan ishlab chiqildi.**

**Tuzuvchi:**

O.A.Umirzaqov - GulDU, "Ekologiya va geografiya" kafedrasida o'qituvchisi

**Taqrizchilar:**

K.E.Xidiraliyev- GulDU "Ekologiya va geografiya" kafedrasida g.f.n ,dotsent.

Fanning o'quv dasturi Guliston davlat universiteti Kengashining 2023-yil 29 08 kuni 1-sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.

Fanning o'quv dasturi GulDU O'quv-metodik kengashining 29 08. 2023 yil 1-sonli majlisida muhokama etildi va Universitet Kengashiga tavsiya etildi.